

“QOBUSNOMA” VA “FARZANDNOMA” ASARLARIDA SADOQATLI DO‘ST
TARBIYASI

Zokirov Ilxomjon

Musayev Murodjon

DXX “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilari.

ilxomjon0806@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ikki davrga mansub didaktik xarakterdagi asarlarda do‘stlik haqidagi qarashlar, ma’lumotlar qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan bo‘lib, ulardagi o‘xshashlik va farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Qiyosiy tahlil asosida tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy tarbiya, do‘stlik, intizom, ommaviy madaniyat, rostgo‘ylik, samimiyat, vafodorlik, yaxshilik, do‘stlashish madaniyati.

Annotation: In this article, views and information about friendship in didactic works belonging to two periods are comparatively studied, and their similarities and differences are shown. Relevant conclusions were drawn based on the comparative analysis.

Key words: moral education, friendship, discipline, mass culture, honesty, sincerity, loyalty, kindness, a culture of friendship.

Tarbiya biz uchun yo hayot
yo mamot, yo najot–
yo halokat, yo saodat–
yo falokat masalasidir.

Abdulla Avloniy.

Biz, sharqliklar azaldan ota-ona, ustoz hurmatini qadrlaydigan, do‘stlikni e‘zozlaydigan xalqmiz. Ularning ma’noli so‘zlariga, hayotiy xulosalariga quloq tutamiz, axloqan pok, haqiqiy inson bo‘lib yetishimizda o‘zimiz uchun dasturul amal sifatida foydalanamiz.

Bugungi kunda o‘sib kelayotgan avlodni yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga, o‘z fikriga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim masala hisoblanadi.

Darhaqiqat, nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog‘ati ham shak-shubhasiz, ta‘lim va tarbiya tufaylidir. “Tarbiya qanchalik mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar.

Tarbiyani mukammal bo'lishligi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Abdurauf Fitrat nazdida "har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi". (*Oila yoki oila boshqarish tartiblari*). O'sib kelayotgan avlod tarbiyasida do'stlik tushunchasiga ham e'tibor qaratish lozim, toki do'st tanlashda adashmasin.

Inson yashar ekan, hayoti davomida do'stsiz yashay olmaydi. Bu bor haqiqat, chunki do'st har doim o'z do'stiga tirgak bo'luvchi, suyansa suyanadigan tog', dardlarini bemalol ayta oladigan sirdosh, yaxshi yomon kunlarida yonida turguvchi, ota – onasidan keyin do'sti uchun qayg'uradigan zotdir. Do'stlik bir shahardirki, uning kaliti vafo, aholisi esa vafodorlardir.

"Bu olamda yaxshilar ila do'stlashishni hamma ham xush ko'radi. Agar zo'r bo'lsang, yomonlarni ham do'stga aylantira bil" Bahouddin Naqshbandning ushbu fikrlari "Farzandnoma" asarida iqtibos sifatida keltirilgani ham bejiz emas. Insonni do'sti bor ekan – u doim kuchi va qudratli bo'ladi. Agar do'stlik yaxshilik ustiga qurilgan bo'lsa, bu do'stlik qudratli kuchga aylanadi, agarda yomon niyatda qurilgan do'stlik bo'lsa, buning aksi bo'ladi".

Xo'sh, do'stlik nima o'zi? Bu so'zga o'zbek tilining izohli lug'atida shunday ta'rif beriladi: "Do'stlik do'st maqomida bo'lishlik; yaqinlik, oshnolik; ahillik; mehribonlik" [1:678] kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Ba'zan insonlar o'rtasida do'stlik ta'rifini boshqa turdagi shaxslararo munosabatlar bilan chalkashtirib yuborish holatlari uchraydi. Biz tahlil qilayotgan "Farzandnoma" asarida do'stlikka muhabbat va samimiyatga asoslangan, adolat mezoniga qurilgan tushuncha sifatida ta'rif berilgan. "Muhabbat daryosidan qanoat suvini simirgan, samimiyat osmonida musaffolik ziyosini sochgan, xazinlik ummonining oqibat to'lqinida g'araq bo'lgan, muloyimlik pardasi ortida haqiqat nigohlari yashirin shunday bir o'tkir adolat tig'i borki, uni DO'STLIK deyдилar" [3:49]

Tarixdan ma'lumki, har bir buyuk zot do'stlarini ulug'lagan, ularni hamma narsadan ustun qo'ygan. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida esa inson hayotida do'stning o'rni quyidagicha ta'rif etilgan: "Ey farzand, bilg'ilki to kishi tirikdur do'stsiz bo'lmagusidur. Bir hakimdan so'rdilar: "Do'st yaxshiroqmu yo birodar? Hakim aytdi: "Do'st bo'lsa yaxshidur!" [4:19]

"Qobusnoma" yoki "Nasihatnomai Kaykovus" asari Sharq mumtoz adabiyoti namoyondasi Kaykovus tomonidan o'z o'g'li G'ilonshohga

nasihatnoma sifatida yaratilgan asar bo'lib, davr an'anasiga ko'ra uni bobosi podshoh Shamsulmaoliy Qobus sharafiga "Qobusnoma" deb nomlaydi.

"Qobusnoma" asari XI asrning noyob yodgorligi bo'lib, uning asosini Qur'oni karim suralari, Muhammad (s.a.v.)ning faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobni o'z ichiga oladi. Ushbu asar G'arb va Sharq mutafakkirlari tomonidan e'tirof etilgan, qadrlangan hamda e'zozlangan. Shu tufayli asar nafaqat o'zbek tiliga, balki boshqa ko'plab xorijiy tillarga ham tarjima qilingan. Masalan asar XVII asrning boshlarida turk, ikkinchi yarmida esa uyg'ur tiliga, XVIII asrning 80-yillarida esa tatar tiliga tarjima qilinadi. Shuningdek asar fransuz, ingliz hamda nemis tillariga tarjima qilingan.

Asar fazilatlarining chek-chegarasi yo'q. Shoh Kaykovusning ushbu asarida tarbiya, axloq masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Muallifning, fikricha, yoshlarga tarbiya berishdan maqsad ularni nafaqat bugun, balki kelajak uchun ham yaroqli shaxslar qilib yetishtirishdir. Asarning badiiy hamda ma'naviy yuksakligini ta'minlaydigan asosiy tirgak bu undagi hikoyatlar sanaladi.

Muallif asar muqaddimasida asarning yozilish sababini quyidagicha izohlaydi: "Ey farzand, umid shulki, sen bu pandlarni qabul qilg'aysan va men otalik shartin bajo qilmish bo'lg'aymen. Bilg'ilki, jahon xalqining rasmi shuldurki, takapo'y(yugurish, yelish) va justujo'y qilib dunyoda biror narsa hosil etarlar va uni o'zlarinig yaxshi ko'rgon kishilariga qo'yib ketarlar. Men dunyoda ushbu so'zlarni hosil qilmishman va mening yaxshi ko'rg'on kishim sendursan. Menga rixlat(jo'nash) yovuq yetdi, dunyodin har nimaki hosil qildim, sening oldingga qo'ydim, tokim xudokom(qaysar) bo'lmag'aysan va berohlik(yo'lsiz, adashgan) yo'liga qadam qo'ymag'aysan" [5:15].

Bugungi kunda madaniy-ma'rifiy asarlar muallifi Obiddin Mahmudovning "Farzandnoma" asari jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan komil inson tarbiyasi haqida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi asar sifatida Kaykovus Qobusnoma" sigamazmu nan yaqin turadi. Kitob bir-birini to'ldiradigan, va boyitadigan yetti fasldan iborat bo'lib, ularning barchasi har xil turdagi suhbatlar va turli mazmundagi mavzularga, farzandlarga hamda otanalarga atalgan maktublardan iborat. Asarning birinchi fasli "Odobnoma" da inson (farzand) dagi yetti noqislik va fazilat, chin do'stning xislatlari to'g'risidagi mavzular insonni beixtiyor o'ylashga majbur etadi. "Farzandnoma" deb nomlangan fasl esa o'sib kelayotgan avlodga, yosh oilalarga o'gitlar, maktublar tarzida bitilgan bo'lib, ular inson kamolotida tarbiyaning ahamiyati ta'sirchan lavhalarda ochib berilgan. Asarning

“Pandnoma” fasli odamzotning tirgagi bo‘lmish ota-ona va ustozlarning ta’lim tarbiyasi xususida bahs yuritadi. “Ibratnoma” faslida O.Maxmudovning katta bobosi va buvisi bilan g‘oyibona suhbatlari keltirilgan.”G‘aroyibotnoma” fasli ba’zi bir ota-onalarning farzand tarbiyasiga e’tiborsizligi yoki befarqligi tufayli ularining “noqobil” bo‘lib ulg‘ayishi, ommaviy madaniyat tushunchasining yoshlar hayotiga salbiy ta’siri haqidagi hikoyalardan iborat. Muallifni inson qalbining me’mori sifatida “Dilnoma” faslida uning tadqiq etilishini kuzatamiz. Asarning so‘nggi fasli bo‘lmish “Saodatnoma”da esa ota-ona duosini olgan qobil farzand hayoti bilan tanishasiz.

Har ikki asar tadqiqi davomida ota-onalar farzandlar tarbiyasida to‘g‘ri do‘st tanlashni bolalikdan o‘rgatib borishlari, do‘stlik tushunchasi va uning qadr-qiymati xususida ilk saboqlar berishlari maqsadga muvofiqligiga amin bo‘lamiz.

Xususan, “Qobusnoma”da do‘stning ishi haqida o‘ylagil, ularga hadyalar bermoq, muruvvatlar qilmoq ila do‘stlik qoidasin mahkam qil. Nedimkim, har kishi do‘stlarni yod qilmasa, do‘stlar ham yod qilmag‘usidur va ul kishi do‘stsiz qolg‘usidur” [5:122]deya saboq berilsa, “Farzandnoma”da bu fikrlar yanada rivojlantirilib, “do‘stingga joningni fido etib, mehr ko‘rgaz. O‘shanda senga undan-da ortiq mehr nuri yog‘iladi;

–Hamma vaqt do‘st ista, fidoiylarcha xizmatini undan ayama. Zero, kishi umrining farog‘atli damlaridan biri ham do‘st bilandir...” deya tushuntiradi. Ushbu fikrlar ayni hayotiy haqiqatdir. Kimki o‘z do‘stlarini qadrlab, ularning holidan tez-tez ogoh bo‘lib tursa, o‘z do‘stligini mustahkamlagan bo‘ladi. Bu bilan u nafaqat do‘stlikni mustahkamlagan, balki do‘stining ko‘nglini ham obod etgan bo‘ladi. Xuddi shunday g‘oyalarni O.Maxmudov ham o‘z asarida do‘stlikning tamoyili sifatida ko‘rsatib o‘tib, fikrlarini shoir Maqsud Shayxzodaning quyidagi to‘rtligi orqali asoslaydi.

Do‘stlar, do‘st bo‘lsangiz, do‘stlikni saqlang,
Do‘stlikning qadrini, salmog‘in oqlang.
O‘lganda yuz soat yig‘lab turgandan,
Tiriklik chog‘ida bir bora yo‘qlang.” [3:52].

Qolaversa, hadislarda ham payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v insonlarni do‘stlashishga chorlab, ular orasida mehr-oqibat tushunchalarini yuksak baholaganlar. Ularda aytilishicha, Ammo, barcha insonlar ham suhbatlashish va do‘st bo‘lishga munosib bo‘lavermaydi. Siz shunday kishi bilan do‘st va hamsuhbat bo‘lingki, unda uch xislat bo‘lsin deyiladi ulardan birida:

“Birinchisi, aqlli bo’lsin. Ahmoq va uning suhbatidan foyda yo’q. Aksincha, oxiri bu kishiga ham ahmoqligi ta’sir qiladi. Ahmoq shunday kishiki, senga yaxshilik qilmoqni xohlar, ammo senga ziyon bo’ladurg’on ishni qiladi. Ahmoq shunday kishiki, yaxshi-yomonni, to’g’ri-noto’g’rini farqlashga farosati yetmas. Unga yaxshilik qilsang, fahm qilmas.

Ikkinchisi, xushfe’llik va chiroyli muomaladir. Buning teskarisi shuki, kim yomon xulqni tark etmasa, vaqti kelib yomon odati, badxulqligi tutib qolsa, haqiqatni va barcha yaxshi xislatlarni zoye qilishdan uyalmas.

Uchinchi xislat, salohdir. Gunoh va ma’siyatga rag’bati bor odam Xudoyi Taolodan qo’rqmaydi va andisha qilmaydi. Kim Xudoyi Taolodan qo’rqmasa, anga e’tiqod qilib bo’lmas”.(ushbu o’rinda bu hadis qaysi manbadan olingani ko’rsatilishi kerak).

Shuni unutmaslik kerakki, har qanday kuchli inson ham do’stning yordamiga muhtoj bo’lishi mumkin. Haqiqiy do’st o’z do’stini hech qachon yolg’iz qoldirmaydi. Do’sti haqida qayg’uradi. O’zi hashamatli uy-joyda yashab, tansiq taomlar bilan taomlanayotib o’ylaydi, “do’stimning munosib yeguligi bormikin? Ota-onasi, oilasi bilan umri halovatda o’tmoqdamikin?” Mana shunday sifat va fazilatlar egasi haqiqiy do’stlikni qadrlaydigan inson bo’ladi.

Rivoyat qilishlaricha, Allah uchun bir- birini yaxshi ko’rgan ikki do’st qiyomatda Allah Arsh’ining soyasidan boshqa soya bo’lmagan bir paytda, Allah Arsh’ining soyasida turar ekan.

Samimiy do’stlik xususida “Qobusnoma”da e’tirof etilgan quyidagi fikrlar e’tirofga loyiq. “Odamlar ikki guruhga bo’lurlar: biri – do’stlarning haqin zoye qilg’uvchi va biri yaxshilikni yaxshi bilg’uvchi. Bilg’ilki, do’stlikka loyiq odamni ikki narsadin bilsa bo’lur: biri ulki do’stlarga tangdastlik yetishgo’y vaqtda qudrati ketguncha mollin do’stdin darig’ qilmas va qashshoqlik vaqtda undin yuz o’girmas, yana biri ulki, do’sti bir jahondin o’tg’ondin so’ng ham ul do’stining farzandlarin, qarindoshlarin va do’stlarin talab qilg’ay ularga yaxshilik ko’rguzg’ay. Goh-goh do’stining mozori ziyoratiga borg’ay va hasrat chekib, duolar qilg’ay”. [5:124]

Kaykovusning ushbu fikrlarini o’qib turib beixtiyor bir hikoya xotirga keldi. “Ikki yil oldin bir yaqin do’stim vafot etdi. Bugun uning telefon raqamidan qo’ng’iroq bo’ldi. Hech ham kutmagandim. “Labbay”, dedim. Kichkina o’g’li ekan. Velosiped olib berishimni so’radi. “Xo’p bo’ladi, bugun, albatta, olib beraman”, dedim va so’radim: “Meni kimligimni bilasanmi?”, bolakay shunday javob berdi: “Yo’q sizni tanimayman. Uyda dadamning rasmlarini tomosha qilib o’tirgandim. Ular orasidan dadam bilan bir kishining rasmi chiqib qoldi. Rasm orqasida esa shu raqam va shunday yozuv bor edi:

“O‘g‘lim, vaqti kelib biror narsaga ehtiyojingga bo‘lsa-yu meni topa olmasanglar, shu raqamga qo‘ng‘iroq qiling, u ham menman. Faqat boshqa yerda yashayman”. Qissadan hissa shuki, inson do‘stlik aloqalarini do‘st bu yorug‘ olamni tark etganda ham saqlab qolib, uning yaqinlari bilan samimiy munosabatlarni davom ettirishi lozim.

Zero, “Farzandnoma”da keltirilgan ushbu fikrlar “Do‘stning borligi – kishining taqdirning turli sinovlarini yengib o‘tishida ham qanot, ham dardkash, ham hamdam, ham yelkadosh sifatida uning saodatmand bo‘lib borishiga yordam beradi”[3:53] ayni hayotiy haqiqatdir.

Jurnalist va bloger Abdulkarim Mirzayev haqiqiy do‘stlik haqida shunday deydi: “Haqiqiy do‘stlar o‘rtasida takalluf bo‘lmaydi. Agarda ikki do‘st o‘rtasida takalluf bo‘lsa, ular do‘st emas. Ularning o‘rtasida qandaydir manfaat bor demak”.

Shuningdek, bu hayotda haqiqiy do‘st topish mushkuldir, bunday do‘stdan voz kechish undan-da qiyin, unutilish esa osonmas.

“Hayotda haqiqiy do‘st o‘z do‘stiga har doim ham yoqib yoqavermaydi, bu bor gap. Chunki do‘st do‘stining xatti-harakati, odobi, so‘zi va amaliga qarab munosabat bildiradi. G‘anim esa o‘ziga manfaatli daqiqa va imkoniyatlardan unumli foydalana olish payida... Axir, o‘zingiz ayting, yaqin insonlaringizdan birontasi sizga har gal “Sen donosan”, “Seni judayam hurmat qilaman”, deya to‘tidedek jonsiz, his-hayajonsiz gaplarni jonsiz takrorlaganini eshitganmisiz? Aksincha, u do‘stga bo‘lgan mehr-u oqibatini, ko‘pincha, yuragida pinhona saqlaydi. To‘g‘ri, har zamonda munosabat bildirib turiladi. Lekin joyida, me‘yorida va ta‘sirli holatlarda. Zero, mavridsiz bildirilgan lutf ustozdan haybatning, do‘stdan samimiyatning, qarindoshdan esa mehrning ketishiga sabab bo‘ladi.”[3:52]

Tasavvur qiling-a, sizga eng yaqin bo‘lgan inson hamma vaqt sizni maqtayversa, albatta, juda g‘alati. Bu holat O.Maxmudovning “Farzandnoma” asarida tilga olingan bo‘lsa, bunday holat haqida “Qobusnoma” asarida shunday deyiladi: “Agar do‘stingning ko‘ngli hech gunohsiz sendan qolsa, uni qaytib kelurga mashg‘ul bo‘lmag‘il, nedimkim ta‘magir, kekchi do‘stdin uzoq bo‘lg‘il, uning do‘stlig‘i haqiqiy ermasdur, balki ta‘ma uchundur. Hasadgo‘y kishilarga hargiz do‘st bo‘lmag‘il, chunki hasadgo‘y kishi do‘stliqqa loyiq ermasdur, chunki hosidning(hasadchi) hasadi hargiz ketmag‘usidur va hamisha sendin ozurda(ozor chekkan) va ginador bo‘lg‘usidur”[5:125]. Haqiqatan ham, agarda kimnidir ko‘ngli hech qanday sababsiz sizdan qoladigan bo‘lsa, oddiy narsadn ham ayb qidirib, sizdan norozi bo‘laversa, yaxshisi unday do‘stdan voz kechganingiz ma‘qul.

Ushbu ikki asarda bir-birida to'ldiruvchi ana shunday fikrlar bilan birga bir-biriga o'xshamagan, o'ziga xos qarashlar ham borki, ular insonning do'stlik haqidagi bilimlarini boyitadi. Shoh Kaykovusning "Qobusnoma"dagi quyidagi fikrlari bugungi kun uchun ham nihoyatda qadrlidir. Do'stning sadoqati sening do'stlaringni o'zi uchun do'st bilishi, dushmanlaringni esa o'zi uchun dushman deya bilishida anglashiladi. Zero, asar muallifi sening dushmaning bilan do'st tutingan kishidan parhez tutishni, har qachon bu do'st dushman tomonda turib ziyon yetkazishi mumkinligidan ogoh etadi.

Yana shunday toifadagi do'stlar ham borki, ular yaxshisi ular bilan do'stlashmagan ma'qul. Bundaylar sizning moliyaviy ahvolingizga qarab munosabat bildiradi. Kaykovus o'z nasihatnomasida ana shunday do'stlardan xabardor etadi: "Muruvvatsiz, fazilatsiz kishini do'st tutmag'ilki, bunday kishining xosiyati bo'lmas va ularni non do'stlari zumrasidin tutg'il, nedimkim ular non do'stidurlar, or va nomus do'sti emasdurlar"[5:123].

Sadoqatli do'stlargina chin do'stdir. To'g'rirog'i, sadoqat bu – do'stlik degani. Sadoqat - do'stlik "sidoq" so'zidan olingan. "Sidoq" esa rostgo'ylik, samimiyat va vafodorlikni anglatadi. Zero, do'st do'stiga nisbatan rostgo'y, samimiy va vafodor bo'ladi.

So'ng so'z o'rnida shuni aytish mumkinki, inson kamolotida munosib do'st tanlash hamda hayot yo'llarida, sinov va qiyinchiliklarda bu do'stlikni mustahkam lash muhim ahamiyatga ega. Do'stlik tushunchasi va uning qiymatini oshirish, qadrlash haqida hayotiy saboqlarni o'zida jamlagan "Qobusnoma", "Farzandnoma" asarlarining yaratilishi garchi boshqa-boshqa davrga mansub bo'lsa ham, do'st tanlash kamolotida biz yoshlar uchun zarur qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Axir, sadoqatli do'st kishi uchun nasib qilishi mumkin bo'lgan ne'matlarning eng yaxshilaridan biri emasmi?

Haqiqatan ham, bu ne'matni faqat haqiqiy do'sti bor odamgina to'laqonli his qila oladi.

Xulosa o'rnida, shuni aytish mumkinki, inson hayot yo'lida bemorlig-u sog'ligida ham, g'am-u shodligida ham unga yelkadosh bo'ladigan inson sadoqat rutbasi baland bo'lgan do'stdir. Bunday do'stlik also zavol topmagay. Qiyosiy tahlil asosida tadqiq qilingan har ikki asar- Shoh Kaykovusning "Qobusnoma" hamda O.Maxmudovning "Farzandnoma" asarlarida do'stlashish madaniyati, hayotda sodiq do'st bo'lish, inson ma'naviy -axloqiy kamolotida do'stlikning o'rni, oqil do'stning asosiy jihatlari, hayotda to'g'ri do'st tanlash haqida saboq berib, yosh avlodni sodiq do'st bo'lish va do'stlikni qadrlashga o'rgatadi.

Do'st bilan tirik inson va topgaydir ul har vaqt kamol,

Do'stsiz o'tgan har oning – fayzsiz, umringga bo'lar zavol.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madlayev tahriri ostida. Birinchi jild.:
Toshkent 2006
2. "Farzandnoma" Obiddin Maxmudov "O'qituvchi" NMIU, 2020
3. Qobusnoma Toshkent O'qituvchi.: 2019
4. "Qobusnoma" Kaykovus. "Yangi asr avlodi" NMIU, 2018